

**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAVIIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

**RAUF PARFI IJODIY HAYOTI**

**Niyatullayeva Xurshida Adambayevna**

*Nukus shaxar 12-son umumta'lim maktabi  
o'zbek tili fani o'qituvchisi*

Ko'p asrlik o'zbek she'riyati XX asrda nozik insoniy tuyg'ularni, davr ruhini o'zida aks ettirib, xilma-xil yo'nalishlarda rivojlandi, o'zgacha ohangda kuylaydigan avlodni yetishtirdi. Ushbu avlodlari orasida o'z torini o'z noxuni bilan cherta olgan turkiynafas shoir Rauf Parfi ijodi o'zining isyonkor she'rlari bilan, takrorlanmas metaforalari bilan, go'zal oksyumoron va okkazional so'zlar yaratgani bilan ham ajralib turadi. Shoirning butun bir lirikasida o'ziga xos mushohada yo'sini, ruhiy kechinmalarning nozik ifodasi, quyma satrlarda so'zdan qanday injalik bilan foydalanganligida namoyon bo'ladi.

Rauf Parfi O'zturk asli nasabi farg'onalik (Vodildan) bo'lib, 1943-yilning 27-sentabrda Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani Sho'ralisoy qishlog'ida Parfi Muhammad Amin (1893-1955) va Sakina Isabek (1913-1995) oilasida dunyoga keldi.

“Tavalludim: 43, mezonning yigirma yettisi” deb yozgan Rauf Parfining tug'ilgan yili va ismi aslida turli hujjatlarda turlicha yozilgan. Shu sababdan ko'pchilik shoirdan necha yoshga qadam bosganini so'rashgan, u kishi esa har gal: “Yigirma besh yoshda to'xtab qolganman...” – deya javob bergan. Birgina ishonchli hujjat jamoa raisi Hamroqul Tursunqulovning kotibi Hamid Azimboyevning uyida saqlangan katta xo'jalik daftari bo'lib, unda “...Tursunali Parpiboy o'g'li Madaminov 1943-yil 27-sentabrda tug'ilgan...” deb yozilgan. Garchi, otasi yolg'iz o'g'liga Abdurauf deb ism qo'ygan esa-da, qarindosh-urug'lar, shu bola o'lmasin, tursin deb, Allohdan so'rab, irim qilishib Tursun Ali otini qo'yganlar. Xuddi shu ma'noda boshida ikki kokil ham o'stirib, birini O'shpirga, birini Shohimardon pirga bag'ishlaganlar.

Rauf Parfi – o'zbek she'riyatida o'z nomi va mavqeyiga ega iste'dodli ijodkor. Shoir o'zining poetik fikrini ifodalashda turli badiiy tasvir vositalari va timsollarga murojaat qiladi. Obrazlar o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llanilib, badiiylik va hayotiylikka asoslangan. U o'zbek she'riy madaniyatidagi sərbast she'r tuzilishini o'zbek xalqining nafaqat orzu armonlari, dard-u alamlari, shu bilan barobar yana tafakkur madaniyati, qalb zarblari, o'zbekona milliy ruhi bilan boyitdi, raufona oksimoron timsollar tizimini yaratdi. Hislar oqimi she'r musiqiyiligini hosil etishi – yolg'iz Rauf Parfi ijodiy izlanishlari uchun xos bo'lgan betakror samaradir. Satrlardagi ichki qofiyalanish, alliteratsiya –

**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAVIIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

ohangdosh soʻzlar bilan boyitilish sheʼrning tafakkur toʻlqinining ong-shuurlarda mixlanib qolishini taʼminladi. “Taxayyul mayiga termulaman jim” deya zorlangan shoirning taxayyullar asosiga qurilgan majoziy obrazlilik, bu – voqelikni, insonni, ruhoni hayotni haqqoniy idrok etish yoʻllaridan biri.

Olam hodisalari inson va insondan boshqa barcha narsa va hodisalar zidligiga tayangan. Mana shu zidliklarda insondan boshqa hodisalar insonga xos xususiyatlarga ega boʻlish asosida metaforaga duchor qilinadi. Rauf Parfi ijodida esa tuygʻular ifodasini tabiat hodisalari, borliqdagi mavjudotlar bilan ifodalash kuchli:

Xayrlashdik... oʻynar kapalak  
Biz asir boʻlmadik lahzaga  
Xayrlashdik besoʻz, beyurak  
Bu bogʻ, bu gul keldi larzaga...

toʻrtligi bilan boshlanuvchi sheʼrida yigit va qizning sheʼr davomida sababi aytilmagan ayrilayotgandagi holati tasvirlangan. Xalq tasavvurida kapalak beqarorlik, bevafoqlik, oʻtkinchilik timsoli. Bu oʻrinda kapalak oʻyini barqaror boʻlmagan sevgiga ishoradir. Lirik qahramonlar esa muhabbatni eng yuksak, noyob tuygʻu sifatida anglab yetmadilar ( Biz asir boʻlmadik lahzaga). Shuning uchun ham oʻrtada chin ishqiy munosabatdan zarracha ham yoʻq va ular “besoʻz, beyurak” xayrlashishmoqda.

Rauf Parfi ijodiy tajribasining oʻzbek poetik soʻz madaniyatidagi novatorligi shundan iboratki, u boy madaniy anʼanalardan voz kechmadi. Ularga tayanib oʻz bulogʻini ochishga, oʻz yoʻlini belgilashga erishdi. Koʻpchilik adabiyot ixlosmandlari shoirning sheʼrlariga toʻliq modern uslubning naʼmunalari sifatida qaraydi. Lekin Rauf Parfi ijodidagi gʻoyalar va badiiy obrazlar azaliy soʻz sanʼatimizdan yiroqlashmagan holda yozilgan. Modern yoki postmodernizm yozilgan, sentimentalizm oqimiga kirib ketuvchi ijod naʼmunalari ham koʻplikni tashkil etadi, ammo bu degani anʼanaviy uslubda umuman yozmagan degan xulosaga olib kelmaydi. Rauf Parfi mavjud turkiy sheʼr hiyo tizimini oʻziga moslashtirdi, takomillashtirdi, boyitdi va oʻz navbatida rivojlantirishga erishdi. Mumtoz sheʼr madaniyatidagi, xalq ogʻzaki ijodidagi sheʼr tuzilishining uyquga ketgan shakllarini uygʻotdi. Rauf Parfining “Parfiy” taxallusi bilan gʻazallar yozgani maʼlum. U har bir janrda goʻzal badiiyat naʼmunalarini yarata oldi. Erkin sheʼr tuzilishi turkiy sheʼriyat uchun begona emasligi, qadimiy sheʼr madaniyatimiz tarixida mavjud ekanligini ijodiy tajribasi orqali tasdiqladi. Shoir sheʼrlarida XX asr xalqining orzu-armonlari, dard-alamlari, sevinch-utashvishlari, qalb zarblarini aks ettirdi. Mana shu ruhni saqlab qolgan holda

**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAVIIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

shaklni o`zgartirdi xolos. Jahon she'riyatiga xos bo`lgan janrlar: sonet, xokku, tanka, rondel (rondo), uchliklar shoir tufayli o`zbek adabiyotida ham o`z o`rnini ko`paytirdi. Bu janrlardan: xokku, rondel, tanka kabilarini faqatgina Rauf Parfi o`zbek she'riyatiga olib kirishni boshlagan, desak adashmaymiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O`rayeva D, Quvvatova D. Jahon adabiyoti atamalarining izohli lug`ati. – Toshkent: “Turon zamin ziyo”, 2015.
2. Рауф Парфи. Қайтиш. – Toshkent: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
3. Bahor bulbullarining chah-chahi. (Yosh tarjimonlar bayozi) –Toshkent: Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
4. Muqaddas, R. (2020). SHE'RIYATDA DIALOG YARATISHDA BADIY MAHORAT VA IJODIY INDIVIDUALLIK. FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 1(1), 136-148.
5. Ixtiyorbek Norov, Javlon Yo`ldoshev, & Sanjar Yo`ldoshev. (2023). ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARS TASHKIL QILISH. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(4), 40–47. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/688>